



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

1(3)
—
2023



MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	6
Lochin ZARIPOV. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kredit-modulli o'qitishning ahamiyati	6
Aziza QODIROVA. Ta'lrim jarayonida termiziy fikrlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy masalalari ...	11
To'lqin RASULOV, Tabassum SALEEM, Umida UMAROVA. Didactic approach and innovative methods in distance learning	16
Dilnoza NOSIROVA. Talabalar ma'nnaviy tafakkurini harakatl o'yinlar orqali rivojlantirish	20
Xudaykulov Rustam Zakirovich. Bo'lajak muhandislarning "Avtotransport vositalarining diagnostikasi" fani asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	24
Ulug'bek ESHQUVVATOV. Talabalarni muhandislik kasbiga yo'naltirishning dolzarbligi	29
У.И. МУРТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	32
Dilfuza O'RMONOVA. Takrorlash va mustahkamlash darslari jarayoniga pedagogik maqsadlar taksonomiyasini tatbiq etish	37
Nargiza DILOVA. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash - pedagogik muammo sifatida	45
Ulug'bek MAMUROV. Aksiologik yondashuv asosida talaba – yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish	49
Laylo OCHILOVA, Lobar RAJABOVA. Steam usuli - ta'lrim jarayonida innovatsion texnologiya sifatida	54
Nohida DJUXONOVA. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixologik xususiyatlari (o'zbek-qirg'iz oilalari misolida).....	58
Nargiza DILOVA. Shaxslararo munosobat va uning mohiyati.....	63
Aziza QODIROVA. Imom at-Termiziy shaxsining psixologik-pedagogik va fikrlarining qiyosiy-analitik jihatlari	68
Nodir RO'ZIYEV. Ekstremal vaziyatlarda o'spirinlar himoya mexanizmining psixologik tahlili.....	71
G.E.ARTIKOVA. 9-10-sinfda "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fanini pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitishning ilmiy-metodik asoslari.....	74
Nozira MUSINOVA. Oila tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanish imkoniyatlari.....	79
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	82
Rustambek QO'LDOSHEV. Scientific theoretical basis of construction of elementary school textbooks	82
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limalda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi	86
Asror KASIMOV. Xalqaro tajribalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilaring kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish	89
Shakarjon QO'CHQOROVA. Darsliklar bilan ishslash o'quvchilar faolligini oshirish vositasi sifatida...	91
Feruza SHARIPOVA. Grammatik tushunchalarni shakllantirishda ta'limiyl o'yinlardan foydalanish.....	95
Sabohat SUBHONNOVA. 1-sinf chapaqay o'quvchilar bilan ishslash va yozuvga o'rgatish.....	98
O'g'iloy MUSTAFOYEVA. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil etish usullari - samarali o'qitishning turi sifatida	101
Habiba JUMAYEVA. Psychological characteristics of development of creative abilities of primary class students.....	105
Dilnoza KARIMOVA. Birinchi sinf o'quvchilarining chiroqli yozish ko'nikmasini shakllantirish usullari	109
Dilfuza DJO'RAYEVA, Nasiba NASIMOVA. Maktabgacha ta'lrim yoshidagi bolalarning ta'limg-tarbiyasida pedagog xodimlarning o'rni	112
Sitora NIYAZOVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda milliy harakatl o'yinlardan foydalanish metodikasi	115
Mavjud NIGMATOVA. Maktabgacha ta'lrim tashkilotlarida kompyuterli ta'limiyl o'yinlar texnologiyasi	119
Flora NE'MATOVA. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi	125

TALABALARНИ MUHANDISLIK KASBIGА YО‘NALTIRISHNING DOLZARBLIGI

Maqolada yoshlarni kasbga yo‘naltirishda uchraydigan muammolar, qiziqish va istaklar asosida amalga oshirish mexanizmlari keltirib o‘tilgan. Kasbga yo‘naltirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va ularni bartaraf etish usullari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Talaba, muhandis, innovatsiya, texnologiya, natija, samarodorlik.

В статье представлены механизмы реализации, основанные на проблемах, интересах и желаниях, возникающих при ориентации молодых людей в профессии. Разработаны предложения и рекомендации по факторам, влияющим на профессиональную ориентацию, и методам их устранения.

Ключевые слова: Студент, инженер, инновации, технология, результат, эффективность.

The article presents the mechanisms of implementation based on the problems, interests and desires encountered in the orientation of young people in the profession. Proposals and recommendations have been developed on the factors affecting professional orientation and methods of their elimination.

Keywords: student, engineer, innovation, technology, result, efficiency.

Bugun fan va texnika sohasining shiddat bilan rivojlanishi jamiyatimizda malakali, bilimli kadrlarga bo‘lgan talabning ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. Jahondagi ko‘pgina davlatlar rivojlanishning yuqori cho‘qqisiga chiqishning asosiy mezonlaridan biri bo‘lgan ta’lim sifatiga e’tibor berishni o‘zlarining asosiy vazifalaridan etib belgilab olgan. Ushbu vazifani hal etishda asosiy e’tibor yoshlarga qaritilgan bo‘lib, ularning **yuqori malakali kadrlar bo‘lib yetishishi orqali amalga oshiriladi**.

Mamlakatimizda zamonaviy fan, texnika va texnologiyalarni rivojlanirishga yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni maqsadli amalga oshirish borasida salmoqli ishlarni olib borildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlanirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da[1] belgilangan “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan ta’lim tizimida innovatsiyalarni ishlab chiqishni ta’minlash[2]kabi belgilangan ustuvor vazifalari olyi ta’lim tizimida raqobatbardosh muhandis kadrlarni innovatsion faoliyatiga tayyorlash zaruriyatini taqozo etmoqda.

Yoshlar har qanday millatning kelajagidir. Ular mamlakatning tayanchi va shu bilan birgalikda ularning jamiyatdagi roli ahamiyatlari hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 15-24 yoshgacha bo‘lgan odamlar yoshlar deb tasniflanadi. Yana shuni takidlash kerakki, dunyoning boshqa mamlakatlarida yoshlarga

beriladigan turli ta’riflarini uchratish mumkin. Bugungi kunda yoshlarning jamiyatdagi roli haqida gapiradigan bo‘lsak, avvalo ular o‘zlarini tug‘ilgan yurtning munosib farzandi bo‘lishdir. Shu boisdan ham ular o‘z mamlakatining turmush tarzini yaxshilash va jamiyatdagi insonlarga yordam berishni o‘z maqsadiga aylantirishi lozim.

Har qaysi sohada bo‘lgani kabi, muhandislik sohasida ham yoshlarning o‘rni mavjud. Jamiyatdagi har qanday bo‘g‘intarida, ya’ni ta’lim, sport, sog‘liqni saqlash, meditsina, qurilish, transport kabi sohalarda muhandislarning roli mavjud. Muhandislar tomonidan turli xil maxsulotlar va dasturlarni loyihalashtirish, ishlab chiqish, o‘rnatish, tekshirish va texnik xizmat ko‘rsatish ishlari amalga oshiriladi. Bunga misol tariqasida shuni aytishimiz mumkinki, bugun insoniyat yer yuzining qaysi nuqtasida bo‘lmasin, bir zumda bir - birlari bilan muloqot qilishi, bir manzilden boshqa bir manzilga tezda yetib borishi imkoniyati mavjud. Bundan kelib chiqadiki, zamonaviy jamiyatda yaxshi kelajak uchun zarur bo‘lgan o‘zgarishlarni yosh muhandislar amalga oshiradi. Ular innovatsiyalar, ijodkorlik va kreativ yondashuv asosida boshqa soha vakillariga nisbatan qarqli ravishda dunyoga ta’sir o’tkazmoqda. Dunyoning o‘zgarishi va shiddatbilan rivojlanishi ortida muhandislar turibdi. Muhandislar tanqidiy shu bilan birga ijodiy fikrlay olishi, qiziquvchan va qobiliyatli bo‘lishi zarur. Jahonda ilg‘or texnologik g‘oyalarni amalga oshirish uchun muhandislar zarur. Matematik va fan tamoyillarini qo‘llash

30 orqali muhandislar dunyodagi eng katta texnik muammolarga yechimlarni ishlab chiqadilar.

Mamalkatning taraqqiy etishi albatta infratuzilmani rivojlantirish, aqqli shaharlar sari qadam tashlash, yashil muhitni joriy etish, yangilanadigan energiya manbalari bilan resurslarni qayta taqsimlash, mamlakatni energiya samaradorligini oshirish va boshqa ko'plab narsalarni anglatadi[5]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda muhandislar uchun keng imkoniyatlar mavjud:

1. Transport sohasini rivojlantirish. Bunda magistral yo'llarni ta'mirlash, eskilarini yangilash, shahar va shahardan tashqaridagi yo'llarni loyihalash va ekspluatatsiya qilish, temir yo'l yo'nalishlarining rivojlanishi va yangi yo'nalishlarni joriy qilish, havo tarsporti, suv transporti va quvur transportini ham loyihalash va takomillashtirish;

2. Energetika sohasini rivojlantirish. Bu yo'nalish ya'ni yashil muhit – bu binolar va shaharlar atrofida energiya tejamkor resurslarni joriy qilish, hamda atrof-muhitni muhofaza qilish;

3. Suv resurslarini tejash va boshqarish. Bu tizim butun mamlakat uchun muhim rol o'ynaydi. Bu yerda suv tarmog'ini rejalashtirish va suv xo'jaligini amalgaga oshirish va asosan shaharlarda va uning atrofidagi chiqindilarni qayta ishslash zavodlari faoliyatini takomillashtirish;

Yuqoridagi ishlarni amalgaga oshirishda texnik-iqtisodiy va boshqaruva bo'yicha muhandislar, loyihalash bo'yicha konstruktiv muhandislar, geotexnik muhandislar, binoinshootlari qurilish muhandislar, yo'l qurilishi muhandislarining o'rni va roli ahamiyatlidir.

Shu o'rinda qurilish muhandisligiga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik. Qurilish muhandisi turli xildagi binolar, ko'priklar, elektr stansiyalari, avtoturargohlar, badiiy inshootlar va boshqalarni o'z ichiga olgan turli xil vazifalarni amalgaga oshiradi. Ular quyidagi vazifalarni hal etishlari zarur:

➤ eng yangi muhandislik texnikasi va kompyuter dasturiy ta'minotidan foydalangan holda tuzilmalarni loyihalash;

➤ quriladigan inshootlarning kompyuter chizmalarini va modellarini yaratish;

➤ qurilish ishlarining borishini nazorat qilish maqsadida qurilish maydonchalariga tashrif buyurish;

➤ qurilish chizmalari, hisobotlarni tekshirish va shartnomalarni yuritish.

Qurilish muhandislari jamiyatimizdagi ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha yuqori malakali

mutaxassislar hisoblanadi. Ushbu soha vakillarining aksariyati xususiy sektorda, qolgan katta qismi esa hukumatda ishlaydi[4].

Mazkur ishda biz muhandislik kasbini tanlashning va uni o'rganishningbir qancha sabablarini ko'rib chiqamiz. Ko'pchilik hollarda maktab bitiruvchilarining oldida katta tanlov ya'ni qaysi soha yoki kasb egasi bo'lishni tanlash talab etiladi. Muhandislik kasbining ijobiy va salbiy tomonlari ham mavjud:

Muhandislik kasbini egallash obro' keltiradi. Bunda siz kishilarning e'tibor markazida bo'lasiz. Sababi ular muhandis sifatida malakaga ega bo'lish uchun qancha kuch talab qilinishini hamma biladi. Shuningdek, ular muhandislik ta'lim yo'nalishi talabalari o'qish davomida boshqa ta'lim yo'nalish talabalariga nisbatan bir muncha qiyinchilikka duch kelishlarini ham yaxshi bilishadi. Shunga ko'ra muhandislarga nisbatan hurmat elementi tabiiy ravishda keladi.

Bu sizni professional muvaffaqiyatga tayyorlaydi. Sizning butun fikrlash jarayoningiz o'zgaradi. Siz muhandis kabi fikrlashni o'rganasiz. Siz mantiqiy fikrlash va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lasiz. Qaror qabul qilish ko'nikmalari yaxshilanadi. Ish haqida gap ketganda siz ko'proq obyektiv va kamroq hissiyotga asoslanib yondashasiz.

Siz har qanday muammoga tayyor bo'lasiz. Bu muhandislik darajasini tugatgandan so'ng, endi hayotda muammolar yoki qiyinchiliklarga duch kelgan vaqtda siz har qanday muammoni hal qilish uchun ko'nikma va bilimga ega bo'lasiz. Bunda siz har bir muammoni qiyinchiliklarsiz bartaraf etishingiz mumkin.

Siz o'z kelajagingizga invistitsiya qila olasiz. Agar siz dabdabali va jo'shqin turmush tarzini xohlaydigan yoki shunchaki bolalaringiz uchun yaxshi kelajakni orzu qiladigan odam bo'lsangiz, unda muhandislik siz uchun. Kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, boshqa kasblarga nisbatan muhandislik bir muncha ko'proq daromad topadigan soha sanaladi.

Siz dunyonı yaxshilash imkoniyatiga ega bo'lasiz. Agar siz haqiqatan ham jamiyatga ijobiy hissa qo'shayotganingizni bilsangiz, bu juda ajoyib his bag'ishlaydi. Sababi insonlarning uzog'ini yaqin qilish maqsadida yangi qurilgan ko'prikkalar qarab: "men o'sha ko'priki qurdim" deya faxrlanib ayta olasiz. Muhandislar yangi narsalarni yaratish (qurish)da qo'shgan hissalarini haqida g'ururlanib gapirishadi.

Tarixdan ma'lumki, g'ildirakning ixtiro qilinishi insoniyat turtush tarzin o'zartirdi. Ushbu jarayonda muhandislar qantaziya va tavsavvurlarni aniq bir foydali narsaga aylantirdi. So'ngra sanoatning rivojlanib borishi bilan birga

muhandislikning ahamiyati va ta'siri tez sur'atlar bilan o'sdi. Bugun biz yashayotgan zamонавиу дунёни мундислиқ мө'жизалари – микропроцессорлар, ўюрги тезликда ишлайдиган генераторлар, уяли алоқа тармоqlari, elektr tarmoqlari, avtomatlashtirilgan yig'ish liniyalari va boshqa muhandislik tarmoqlarisiz tasavvur qilish qiyin.

Muhandislikning asosiy tamoyili har doim murakkab masalalarni hal qilish va hayotimizni sodda, xavfsiz va samarali qilishdan iborat. Bunga misol qilib shuni aytishimiz mumkinki, transport va ishlab chiqarish, sanoat kabi sohalarda muhandislik doimo hal qiluvchi rol o'ynagan. Bugungi kunda ham muhandislik bizga eng murakkab muammolarimizni hal qila oladigan qurilmalar, mashinalar va dasturlarni yaratishda yordam beradi. Muhandislар va olimlar yashil texnologiyalar, arzon yadroviy reaktorlar va quyosh energiyasidan foydalanish vositalarini ishlab chiqishda birgalikda ishlamoqda. Ushbu innovatsiyalar ekotizimimizga

odamlar tomonidan yetkaziladigan ifloslanish **31** miqdorini cheklashga qaratilgan[6].

Yuqoridagi vazifalarni hal etishda muhandislik matematika va boshqa aniq fanlarni puxta o'zlashtirishlari talab etiladi. Shu bilan birga, muhandislik ijodiy yondashuvni nazarda tutadi, masalan, turli infratuzilmalar, mashinalar va jarayonlarni loyihalash va ishlatishda.

Xulosa qilib aytganda, hayotimizda xech bir sohani muhandislik ishlanmalarisiz tasavvur etish qiyin. Shu bois ham hozirga vaqtida nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda yegallagan mutaxassisliklari bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, mavjud vaziyat yuzasidan ijodiy yondashgan holda muammoli holatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qila oladigan mutaxassislarini tayyorlash oliy ta'llim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, umid qilamanki, mazkur ishda o'rta maktab o'quvchilariga muhandislik bo'yicha o'qishni o'ylaydigan motivatsiya berishga yordam berdi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони:// Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари тўплами. –Т., 2017. –Б.39.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси инновацион ривожланиш вазирлигини ташкил этиш тўғрисида”ги Фармони // ҚҲММБ: 06/17/5264/0339-сон 01.12.2017 й.
3. Ўзбекистон Республикасининг "таълим тўғрисида"ги ЎРҚ-637-сонли Қонуни. www. лех.уз.
4. Проектирование учебно-методического обеспечения модулей инновационной образовательной программы: Методическое пособие / О. В. Акулова, А. Е. Бахмутский, Под ред. С. А. Гончарова. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2007. – 159 с.
5. Эшкувватов У. А. Талабаларда креатив қобилиятларни ривожлантиришнинг аҳамияти. // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. Махсус сон. Бухоро -2021. В.372-377.
6. Улугбек Эшкувватов "Талабаларнинг креатив қобилиятларини ривожлантириш методикаси" Таълим, фан ва инновация. Тошкент 2022 йил 4-сон Б.117
7. Creativity at Work asoschisi Linda Neymanning